

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
“O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY
ASOSLARI VA MUAMMOLARI” ILMIY-TADQIQOT MARKAZI**

ABDURAXMANOV KAXRAMON ABDUMAJITOVICH

**BYUDJET TASHKILOTLARINI MOLIYALASHTIRISH VA
MABLAG‘LARNI MAQSADLI SARFLANISHI NAZORATI
SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
Economical sciences**

Abduraxmanov Kaхраmon Abdumajitovich

Byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish va mablag'larni maqsadli sarflanishi nazorati samaradorligini oshirish..... 3

Абдурахманов Кахрамон Абдумажитович

Повышение эффективности контроля за финансированием бюджетных организаций и целевым расходованием средств..... 25

Abdurakhmanov Kahramon Abdumajitovich

Raising efficiency of control over the financing of budget organizations and targeted spending of funds..... 49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 54

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
“O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY
ASOSLARI VA MUAMMOLARI” ILMIY-TADQIQOT MARKAZI**

ABDURAXMANOV KAXRAMON ABDUMAJITOVICH

**BYUDJET TASHKILOTLARINI MOLIYALASHTIRISH VA
MABLAG‘LARNI MAQSADLI SARFLANISHI NAZORATI
SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2022.3.PhD/Iqt2425 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portaliga (www.ziyounet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Isayev Faxriddin Ikromovich iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Rasmiy opponentlar:	Kuzieva Nargiza Ramazanovna iqtisodiyot fanlari doktori, professor Xusanov Durbek Nishonovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.1.16.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil "14" 11 soat/208 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (26 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "28" 10 kuni tarqatildi.

(2024-yil "28" 10 dagi 72 raqamli reestr bayonnomasi).



S.U. Mexmonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
i.f.d., professor

U.V. Gafurov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotiibi, i.f.d., professor

S.K. Xudoykulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. So‘nggi yillarda jahon mamlakatlari o‘rta muddatli istiqbolda fiskal siyosatni yanada izchil va samaraliroq qilish hamda xarajatlarning ta‘sirini qisqartirish uchun keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. “Milliy daromadning ulushi sifatida ta‘limni moliyalashtirish so‘nggi o‘n yil ichida hech bir mamlakat daromad guruhi uchun sezilarli darajada o‘zgarmadi. 2022-yilda yuqori daromadli mamlakatlar o‘z byudjetlarida ta‘limga ustuvorlik berishni kuchaytirdilar. Ammo daromadi past bo‘lgan ko‘plab mamlakatlarda ta‘lim o‘z o‘rnini yo‘qotdi”¹. Byudjet tashkilotlarida mablag‘larni taqsimlashni optimallashtirish, nazorat qilish, firibgarlikka oid xavflarni kamaytirish, xarajatlarni tejash va jamoatchilik ishonchini oshirishga oid muammolar sohani mukammalroq o‘rganish zaruratini oshirib bormoqda.

Xalqaro amaliyotda byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish va mablag‘larning maqsadli sarflanishini nazorat qilish samaradorligini oshirishga oid bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Byudjet tashkilotlaridagi ichki nazorat tizimlarini o‘rganish, moliyaviy firibgarlik va qonunbuzarliklarning oldini olishda ularning samaradorligini baholash, moliyaviy nazorat modellarining qiyosiy tahlili, byudjet tashkilotlarida risklarni boshqarish strategiyalari, byudjet mablag‘larini taqsimlash va mablag‘larning ustuvor yo‘nalishlarga yo‘naltirilishini ta‘minlashda jamoatchilik ishtiroki, mablag‘lar nazoratini tartibga soluvchi huquqiy va me‘yoriy-huquqiy bazani tahlil qilish hamda takomillashtirish yo‘nalishlarini belgilash bu borada amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O‘zbekistonda byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish samaradorligini oshirish va maqsadli xarajatlarni boshqarish mexanizmlarini kuchaytirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. “Birinchi darajali byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarning rahbarlari o‘z tasarrufidagi tizimda byudjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilish, byudjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi, tasarrufidagi tizim tashkilotlariga byudjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi”² kabi vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni samarali amalga oshirishda byudjet mablag‘lari bo‘yicha xarajatlar smetasida rejalashtirilgan maqsadli mablag‘larning ishlatilmay qolgan qismini davlat byudjetiga qaytarish, oliy ta‘lim muassasalariga ajratiladigan byudjet mablag‘lari hajmini hisoblash metodikasini takomillashtirish, ortiqcha rejalashtirilgan yoki ishlatilmagan deb belgilangan mablag‘larni chegirib tashlash va ularni ish haqi, nafaqalar va ayrim xizmatlarni moliyalashtirish uchun qayta taqsimlash, byudjet tashkilotlarida nazorat tadbirlari samaradorligini oshirish maqsadida masofaviy nazorat takomillashtirish masalalari tadqiqiga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqot ishining dolzarbligini namoyon etadi.

¹<https://www.worldbank.org/en/news/feature/2023/04/24/the-false-dichotomy-between-more-more-effective-public-spending-on-education-lessons-from-country-experiences>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to‘g‘risida”gi qonuni ijrosini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-471-son qaror

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-fevraldagi PQ-128-son “O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti xarajatlarining samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”, 2022-yil 30-dekabrda PQ-471-son “O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to‘g‘risida”gi qonuni ijrosini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 30-dekabrda PQ-73-son “O‘zbekiston Respublikasining “2022-yil O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi qonunning ijrosini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish va mablag‘larni maqsadli sarflanishi nazorati samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy masalalari xorijlik iqtisodchi olimlar C.T.Horngren, F.K.Kinyua, S.Sponem, C.Vandierendonck, N.Vasilyeva³, MDH olimlaridan E.Axmeytshin, Yu.K.Baranova, N.A.Kazakova, G.B.Polyak, S.O.Shoxinlarni⁴ kiritish mumkin.

Respublikamiz iqtisodchi olimlaridan T.Malikov, N.Xaydarov, O.Olimjonov, T.Eshnazarov, M.Mansurov, D.A.Raxmonov, H.Qurbonov, M.X.Temirov, L.N.Xazratkulova, F.M.Ollokulova⁵ ilmiy ishlarida byudjet tashkilotlarini

³ C.T. Horngren, G.Forster, & Dater, D. (2012). Cost Accounting: A managerial Emphasis, San Francisco, Simon and Schuster co; Kinyua, F. K. (2015), The Relationship between Budgetary Control and Financial Performance of the Insurance Companies in Kenya (Master’s Thesis, School of Business, University of Nairobi); S.Sponem, & C.Lambert, (2016). Exploring differences in budget characteristics, roles and satisfaction: A configurational approach. Management Accounting Research, 30, 47-61. doi: 10.1016/j.mar.2015.11.003; Vandierendonck, Caroline. 2014. “Public Spending Reviews: Design, Conduct, Implementation.” Economic Papers 525, European Commission, Brussels; Vasilyeva, N.: Control of targeted spending of state funds by budget organizations: International Journal of Economics and Financial Issues: October 2019 Pages: 346-352

⁴ E.Akhmetshin, Improving control over the targeted use of budgetary funds in Kyrgyzstan: Journal of Economic Policy and Regulation: August 2020 Pages: 57-64; Ю.К.Баранова Государственный финансовый (бюджетный) контроль сегодня // Социально-экономические явления и процессы. — 2018. — Т. 13. № 1. — С. 87-91; Н.А.Казакова Современные парадигмы и методы анализа и контроля бюджетной эффективности: монография / Н.А. Е.А.Казакова, Л.Б.Федченко, Трофимова. — М.: ИНФРА-М, 2014. — 270 с.; Г.Б.Поляк Государственный и муниципальные финансы: Учебн. пособие/ Ред. Г.Б.Поляк. — 3-е изд., перераб. и доп. — М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2008. — 375 с.; С.О.Шохин Международные стандарты государственного финансового контроля: особенности правового регулирования. Учебное пособие / С.О.Шохин. — Москва: Прометей, 2020. — 294 с. — Текст: непосредственный.

⁵ T.Malikov, Xaydarov N. Davlat byudjeti. O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2007.; T.Malikov, O.Olimjonov Moliya (darslik) / Toshkent. Iqtisod-moliya -Toshkent, 2019.; T.Eshnazarov, M.Mansurov O‘zbekiston Respublikasi byudjet tizimi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent – 2015.; H.Qurbonov, M.Bijanova Davlat byudjeti xarajatlarining amaldagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlardagi ahamiyati. Biznes-daily.uz/ru. 27 okt. 2015 g. Nomer: №9 (93)-2015.; D.A.Raxmonov O‘zbekistonda ijtimoiy sohani moliyalashtirishning metodologik asoslarini takomillashtirish: i.f.d. avtoreferat. – Toshkent, TDIU. – 2018. – 72 bet.; M.X.Temirov O‘zbekiston Respublikasida davlat moliya tizimini isloh qilishning istiqbolli yo‘nalishlari. i.f.d.(PhD) dissertatsiyasi himoyasi avtoreferati, 2019.; Л.Н.Хазраткулова Социально-экономическое развитие государств Евразии и других зарубежных стран. J: Проблемы современной экономики, №4 (84), 2022.; F.M.Ollokulova Mahalliy byudjetlar daromadlar manbaini kengaytirish yo‘nalishlari (Surxondare viloyati misolida) i.f.d.(PhD) dissertatsiyasi himoyasi avtoreferati, 2022.

moliyalashtirishga oid nazariy va metodologik asoslarning ayrim jihatlari o'rganilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Milliy iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish tizimi transformatsiyasining uslubiy asoslari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish va mablag'larni maqsadli sarflanishi nazorati samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

davlat moliyasini boshqarish, byudjet tashkilotlari va nazorat mexanizmlari amal qilishining nazariy asoslarini tadqiq etish;

byudjet tashkilotlarida mablag'larning taqsimlanishi va sarflanishini nazorat qilish bo'yicha muammolar va ilg'or xorijiy tajribalar bo'yicha mavjud tadqiqotlarni tahlil qilish;

byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish va mablag'larning maqsadli sarflanishini tartibga soluvchi huquqiy bazani ko'rib chiqish;

tanlangan byudjet tashkilotlarining mablag'lardan foydalanish amaliyoti va nazorat mexanizmlari samaradorligini baholash uchun amaliy tadqiqotlar o'tkazish;

mablag'larning taqsimlanishi va maqsadli sarflanishi ustidan nazorat mexanizmlari samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

nazorat jarayonlarini optimallashtirish uchun huquqiy, axloqiy, tashkiliy va texnologik yondashuvlarning ahamiyatini o'rganish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasidagi fan va ta'limga oid muassasalar faoliyati olingan.

Tadqiqot predmeti byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish va mablag'larni maqsadli sarflanishi nazorati samaradorligini nazariy, amaliy va uslubiy asoslarini takomillashtirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda dialektik yondashuv, tahlil va sintez, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, reyting baholash, statistik va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

byudjet mablag'lari bo'yicha xarajatlar smetasida rejalashtirilgan maqsadli mablag'larning ishlatilmay qolgan qismini moliya yili oxirida belgilangan tartibda Davlat byudjetiga qaytarish orqali byudjet taqchilligining oldini olish va muvozanatli byudjetni saqlash, resurslarni taqsimlashni optimallashtirish, byudjetni boshqarish shaffofligini oshirish, fiskal mas'uliyatga sodiqlikni ta'minlash asoslangan;

oliy ta'lim muassasalariga ajratiladigan byudjet mablag'lari hajmini hisoblash metodikasi har bir talaba uchun turli xarajatlarni hisobga olgan holda resurslarni samarali taqsimlashni ta'minlash asosida takomillashtirilgan;

byudjet tashkilotlari tomonidan ortiqcha rejalashtirilgan yoki ishlatilmagan deb belgilangan mablag'larni chegirib tashlash va ularni ish haqi, nafaqalar va ayrim xizmatlarni moliyalashtirish uchun qayta taqsimlash taklifi asoslangan;

byudjet tashkilotlarida moliyaviy nazorat samaradorligini muntazam tekshiruv tadbirlari ustuvorligi ta'minlash imkonini beruvchi masofaviy (kameral) nazorat asosida takomillashtirish taklifi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish manbalarining shakllanish xususiyatlari ilmiy jihatdan asoslangan;

oliy ta'lim muassasalariga ajratiladigan byudjet mablag'lari hajmini hisoblash formulasi ishlab chiqilgan;

byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish va mablag'larni maqsadli sarflanishini ta'minlovchi institutsional mexanizmlar yoritib berilgan;

byudjet tashkilotlarini moliyalashtirishning asosiy tashkiliy mexanizmlari takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot ishini tayyorlashda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi moliyaviy nazorat inspeksiyasi, O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining rasmiy ma'lumotlaridan foydalanilganligi, ishda qo'llanilgan yondoshuv va usullarning maqsadga muvofiqligi va ilmiy asoslanganligi, keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish va mablag'larni maqsadli sarflanishi nazorati samaradorligini oshirishga oid maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan mamlakatimizda oliy ta'lim muassasalariga ajratiladigan byudjet mablag'larini maqsadli sarflanishi, byudjet tashkilotlarida mablag'larning taqsimlanishi va sarflanishini nazorat qilish, davlat moliyasini boshqarish, byudjet tashkilotlari va nazorat mexanizmlarini takomillashtirish, mablag'larning maqsadli sarflanishini tartibga soluvchi huquqiy bazani va byudjet-soliq siyosati konsepsiyasi loyihalarini ishlab chiqishda, ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalardan respublikada faoliyat ko'rsatayotgan moliya va tegishli nazorat organi xodimlariga metodik qo'llanma sifatida byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish va mablag'larni maqsadli sarflanishi bo'yicha darsliklar, o'quv va uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish va mablag'larni maqsadli sarflanishi nazorati samaradorligini oshirish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

byudjet mablag'lari bo'yicha xarajatlar smetasida rejalashtirilgan maqsadli mablag'larning ishlatilmay qolgan qismini moliya yili oxirida belgilangan tartibda Davlat byudjetiga qaytarish orqali byudjet taqchilligining oldini olish va muvozanatli byudjetni saqlash, resurslarni taqsimlashni optimallashtirish, byudjetni boshqarish shaffofligini oshirish, fiskal mas'uliyatga sodiqlikni ta'minlash taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-avgustdagi "Moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta'lim muassasalarida davlat buyurtmasi (davlat granti) asosida

kadrlar tayyorlash uchun O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetidan moliyalashtirish tartibini tasdiqlash to'g'risida" 419-son qarorida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 20-oktyabrdagi 06/33-2-4379-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida davlat mablag'larining bo'sh qolmasligi yoki maqsadsiz foydalanilmasligini ta'minlash orqali byudjet jarayonining yanada samarali va hisobdorligiga hissa qo'shish imkoni yaratilgan;

oliy ta'lim muassasalariga ajratiladigan byudjet mablag'lari hajmini hisoblash metodikasi har bir talaba uchun turli xarajatlarni hisobga olgan holda resurslarni samarali taqsimlashni ta'minlash asosida takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-avgustdagi "Moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta'lim muassasalarida davlat buyurtmasi (davlat granti) asosida kadrlar tayyorlash uchun O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetidan moliyalashtirish tartibini tasdiqlash to'g'risida" 419-son qarorida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 20-oktyabrdagi 06/33-2-4379-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida byudjet qarorlari qanday qabul qilinishini tushuntirishning tizimli usulini taqdim etish, bu manfaatdor tomonlarga xarajatlarni oqlashni osonlashtirish imkoni yaratilgan;

byudjet tashkilotlari tomonidan ortiqcha rejalashtirilgan yoki ishlatilmagan deb belgilangan mablag'larni chegirib tashlash va ularni ish haqi, nafaqalar va ayrim xizmatlarni moliyalashtirish uchun qayta taqsimlash taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 24-martdagi "Moliya vazirligi huzurida davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish hamda byudjet tashkilotlarida moliyaviy nazoratni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 129-son qarorida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 20-oktyabrdagi 06/33-2-4379-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida foydalanilmagan yoki ortiqcha rejalashtirilgan mablag'larni qayta taqsimlash resurslardan foydalanishni optimallashtirish imkoni yaratilgan;

byudjet tashkilotlarida moliyaviy nazorat samaradorligini muntazam tekshiruv tadbirlari ustuvorligi ta'minlash imkonini beruvchi masofaviy (kameral) nazorat asosida takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrda PQ-471-son qaroriga ilova O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining barqarorligini ta'minlash va xarajatlarning samaradorligini oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 20-oktyabrdagi 06/33-2-4379-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida byudjet mablag'larining noqonuniy talon-taroj qilinishi va moliyaviy huquqbuzarliklarning oldi olish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta, jumladan 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan va ijobiy xulosalar olingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya

komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta, shundan, nufuzli xorijiy jurnallarda 2 ta ilmiy maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 132 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida ilmiy tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish va mablag'larni maqsadli sarflanishi nazoratining nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida byudjetlashtirish va byudjet nazoratining nazariy masalalari, byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish manbalarining shakllanish xususiyatlari va tafovutlari hamda mablag'larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratning samaradorligini baholashning xorij tajribasi bo'yicha tadqiqot olib borilgan.

Byudjet tashkilotlari har qanday iqtisodiy tizimda va har qanday boshqaruv modelida ishlab chiqarish va moliyaviy-iqtisodiy munosabatlarning muhim subyektlari hisoblanadi. Ular ta'lim, sog'liqni saqlash, ilmiy tadqiqotlar, ijtimoiy himoya, madaniyat, davlat boshqaruvi kabi qator ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ehtiyojlarni qondirishni ta'minlashga mo'ljallangan. Byudjet tashkilotlari davlat va mahalliy byudjetlar hisobidan ta'minlanadigan muassasalar, tashkilotlardir. Mamlakatda yaratilgan moliyaviy resurslarning yarmidan ko'pi davlat byudjeti tizimiga safarbar etilgan. Bu mablag'lar asosan byudjet tashkilotlarining hisob-kitoblariga sarflanadi. Bu byudjet tashkilotlari moliyasining mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyatining katta ta'sirga ega ekanligini belgilaydi. Hozirgi vaqtda ko'plab tashkilotlarning mavjudligini faqat ularning moliyaviy ko'rsatkichlari nuqtayi nazaridan oqlash mumkin. Shuning uchun bunday tashkilotlar uchun ularning moliyaviy ko'rsatkichlarini yaxshilaydigan har qanday narsa foydalidir.

1-jadvalda O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti xarajatlarining 2019-2023-yil ijrosi tahlil qilingan bo'lib, e'tiborlisi davlat byudjeti xarajatlari o'sish tendensiyasiga ega. 2005-yildan buyon O'zbekiston Respublikasida profitsit holatida bo'lgan bo'lsa, 2019-yildan keyin xarajatlar daromadlardan keskin oshib, defitsit vujudga kelayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Jami xarajatlar 2019-yilda 112 692 mlrd.so'm, 2020-yilda 144143 mlrd.so'm, 2021-yilda 188 257 mlrd.so'm, 2022-yilda 236 692 mlrd.so'm, 2023-yilda 281 097 mlrd.so'mni tashkil etgan va salbiy defitsit mos ravishda -527 mlrd.so'm, -11205 mlrd.so'm, -23 458 mlrd.so'm, -34 649 mlrd.so'm va -49 376 mlrd.so'mni tashkil etib, oldingi defitsitga nisbatan ham ko'rsatkichlari salbiy tomonga o'zgarayotganligini ko'rish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti xarajatlarining 2019 - 2023 yil ijrosi tahlili⁶, mlrd.so‘m

Ko‘rsatkichlar	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
JAMI (Xarajatlar)	112692	144143	188257	236692	281 097
Ijtimoiy xarajatlar	63 542	74 232	92 014	117692	137 247
Iqtisodiyot xarajatlari	18 485	16 693	21 170	32253	42 167
Investitsiya xarajatlarini moliyalashtirish	7 048	18 844	24476	23369	17 351
Davlat boshqaruvi, adliya, prokuratura va sud organlarini saqlash xarajatlari	5 315	7 826	9 329	12 586	15 914
O‘zini o‘zi boshqarish organlarini saqlash hamda Davlat tomonidan NNT va fuqarolik jamiyatning boshqa inistitutlarini qo‘llab-qo‘vvatlash xarajatlari	739	865	1 133	1069	1 088
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, shahar va tumanlar byudjetlarining zaxira jamg‘armalari	985	1 506	1 402	1811	1 720
Davlat qarzlariga xizmat ko‘rsatish va qoplash xarajatlari	1 089	1 816	2 238	3 529	8 221
Boshqa xarajatlar	20 804	21300	30743	25506	40 716
JAMI (Daromadlar)	112165	132938	164 799	202043	231 721
Profitsit (+) yoki defitsit (-)	-5 27	-11205	-23 458	-34 649	-49 376

Shu bilan birga ijtimoiy xarajatlar 2019-yilda 63 542 mlrd.so‘m, 2020-yilda 74 232 mlrd.so‘m, 2021-yilda 92 014 mlrd.so‘m, 2022-yilda 117 692 mlrd.so‘m, 2023-yilda 137 247 mlrd.so‘mni tashkil etganligini alohida ta’kidlash lozim, ya’ni ijtimoiy xarajatlar 2019-yilga nisbatan 2023-yilda deyarli 3 barobarga ortgan. Yana e’tiborli jihat 2019-yildan boshlab Davlat byudjeti xarajatlari tarkibiga yangi ko‘rsatkich, ya’ni davlat qarzlariga xizmat ko‘rsatish va qoplash xarajatlari ham qo‘shilib, 2019-2023-yillarda umumiy hisobda 16893 mlrd.so‘mni tashkil etganligini ham alohida qayd etish lozim.

Davlat byudjetida xarajatlar so‘nggi 5 yil davomida mutassil o‘sib bormoqda. Ushbu muammolarning mavjudligi va ularning asosini aniqlashtirish kabi masalalar bor ekan, davlat byudjetini moliyalashtirish va mablag‘larni maqsadli sarflanishi o‘stidan nazorat o‘rnatish zarurati oshib boraveradi. Davlat byudjeti mablag‘larini doimiy ravishda nazoratini amalga oshirmas, byudjet xarajatlarining samarali yoki samarasiz ahamiyatini aniqlashtirmas ekanmiz mablag‘larni maqsadli sarflanishi samaradorligi ko‘rsatkichlarini aniqlashtira olmaymiz.

Olib borilgan tadqiqotlarga tayanib, byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish davlat organlari, notijorat tashkilotlari va davlat byudjetlari hisobidan

⁶ Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2018-2022-yillardagi byudjet parametrlaridan foydalanilib, muallif tomonidan shakllantirildi.

moliyalashtiriladigan boshqa subyektlarning faoliyati va dasturlarini qo'llab-quvvatlash uchun moliyaviy resurslar bilan ta'minlash jarayonidir deb hisoblasak bo'ladi. Byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish murakkab jarayon bo'lib, turli moliyalashtirish manbalari, jumladan, davlat mablag'lari, grantlar, xayriyalar, xizmatlar uchun to'lovlar, investitsiyalar, qarzlar, tashkilotlararo transfertlarni o'z ichiga oladi.



1-rasm. Byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish manbalari⁷

1-rasmda xalqaro amaliyotda mavjud bo'lgan byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish manbalarini keltirib o'tganmiz. Byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish manbalari turli omillarga, jumladan, tashkilotning maqsadlariga, davlat byudjetining ustuvor yo'nalishlariga, tashqi manbalar hisobidan moliyalashtirishning mavjudligiga, tashkilotning yig'imlardan daromad olish qobiliyatiga bog'liq.

Byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish manbalarini shakllantirishda tashkilot turiga va u faoliyat yuritayotgan sharoitga qarab bir qancha asosiy tafovutlar mavjud bo'lib, uni quyidagi 2-rasmda keltirganmiz.

Yuqoridagi byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish manbalarini shakllanish xususiyatlari va tafovutlar asosida xulosa qiladigan bo'lsak, byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish manbalarini shakllantirish murakkab jarayon bo'lib, turli omillarni sinchiklab ko'rib chiqishni talab qiladi. Byudjet tashkilotlarining samarali faoliyat yuritishi, shu bilan birga o'z strategik maqsad va vazifalarini bajarishi uchun samarali moliyaviy boshqaruv muhim ahamiyatga ega.

Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash maqsadida byudjet tashkilotlari uchun diversifikatsiyalangan moliyalashtirish strategiyasini ishlab chiqish muhim. Shuningdek, byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish manbalarini shakllantirish

⁷ Muallif tomonidan shakllantirilgan
12

tashkilotning xususiyatiga va uni moliyalashtirishga bo‘lgan talabiga qarab murakkab va xilma-xil bo‘lishi mumkinligini inobatga olish lozim.



2-rasm. Byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish manbalarini shakllantirishdagi tafovutlar⁸

O‘zbekistonda byudjet tashkilotlari tomonidan davlat mablag‘larining maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni takomillashtirish bo‘yicha kompleks strategiyani ishlab chiqish barqaror siyosiy iroda va resurslar bilan qo‘llab-quvvatlanadigan ko‘p qirrali va ko‘p tarmoqli yondashuvni talab qiladi. O‘zbekistonda byudjet tashkilotlari tomonidan davlat mablag‘larining maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni takomillashtirish hukumat, fuqarolik jamiyati va boshqa manfaatdor tomonlarning samarali siyosat, jarayonlar va nazorat mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha hamkorlikda uzoq muddatli majburiyatlarini talab qiladi.

Dissertatsiyaning **“Byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish va mablag‘larni maqsadli sarflanishi nazoratini hozirgi holati tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida byudjet mablag‘larini moliyalashtirishning joriy holati tahlili, moliyalashtirish va mablag‘larni maqsadli sarflanishiga ta’sir etuvchi omillar tahlili hamda moliyaviy nazorat organlari faoliyati natijalari tahlili o‘rganilgan.

Biz ushbu tadqiqot ishimizda fan va oliy ta’lim sohasining davlat byudjetidan moliyalashtirish holatini tahlil qilishni maqsad qilganmiz. Chunki fan va oliy ta’lim sohasi bugun O‘zbekiston uchun eng ko‘p e’tibor qaratilayotgan va davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirilayotgan sohalarning muhimlaridan hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-son Farmonida 2025-yilga qadar ilm-fanga yo‘naltiriladigan jami mablag‘larning yalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushini 6 baravarga, 2030-yilgacha esa 10 baravarga oshirish, ya’ni 2 foizga oshirish vazifasi belgilab quyilgan.

⁸ Muallif tomonidan shakllantirilgan

O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan Fan va oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag‘lar holati tahlili⁹, mlrd.so‘mda

Hammasi	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
Jami	1 145,2	1 452,0	2 291,1	3 106,9	3 824,5	6 432,8	9 058,1
Noyob ilmiy obyektlar va ilmiy muassasalarni saqlash xarajatlari	55,7	120,1	260,7	309,3	449,9	618,6	760,6
Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga ajratilgan mablag‘lar	191,8	267,3	373,6	416,4	614,2	575,6	750,0
Davlat arxivlarini saqlash xarajatlari	15,8	24,1	34,3	37,7	38,4	52,4	60,8
<i>Respublika byudjeti</i>	3,2	4,8	6,9	7,5	7,7	10,9	13,5
<i>Mahalliy byudjet</i>	12,6	19,3	27,5	30,2	30,7	41,5	47,2
Fan sohasiga boshqa xarajatlar	9,7	13,1	31,4	60,4	67,6	193,7	254,0
Oliy ta’lim muassasalarini saqlash xarajatlari	738,6	878,8	1 288,4	1 882,6	2 220,2	3 340,8	4 848,5
<i>oliy ta’lim muassasasida magistratura bosqichida o‘qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to‘lovlarini qaytarish shartisiz qoplash uchun xarajatlar</i>	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	68,1	200,0
<i>davlat-xususiy sheriklik va davlat oliy ta’lim tashkilotlarining buyurtmalari asosida talabalar turar joyini barpo etish bo‘yicha loyihalar uchun subsidiyalar</i>	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	153,0	210,0
<i>davlat xususiy sheriklik asosida qurilgan talabalar turar joyida yashaydigan talabalar uchun davlat sherigiga ajratiladigan subsidiyalar</i>	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	74,1
Kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish muassasalarini saqlash xarajatlari	96,1	108,4	198,4	274,3	312,0	298,8	413,1
Kadrlarni tayyorlash bo‘yicha boshqa xarajatlar	37,5	40,3	104,4	126,2	122,3	231,9	271,1
<i>Jumladan El-yurt umidi jamg‘armasi</i>						169,4	200,0
Ta’lim kreditini moliyalashtirish jamg‘armasiga ajratilgan mablag‘lar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	1 121,0	1 700,0

⁹ O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

So‘nggi yillarda sohaga ajratilayotgan mablag‘lar miqdori o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lib, buning barchasi davlat byudjeti mablag‘laridan amalga oshirilayotganligini alohida ta’kidlashimiz lozim. Shuni inobatga olib, ushbu sohani so‘nggi yillardagi byudjet hisobidan moliyalashtirishning joriy holatini tahlil qilishni maqsad qilganmiz.

2-jadvalda davlat byudjetidan Fan va oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag‘lar jamisi 2017-yilda 1 145,2 mlrd.so‘m, 2018-yilda 1 452,0 mlrd.so‘m, 2019-yilda 2 291,1 mlrd.so‘m, 2020-yilda 3 106,9 mlrd.so‘m, 2021-yilda 3 824,5 mlrd.so‘m, 2022-yilda 6 432,8 mlrd.so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, joriy tugallanmagan 2023-yilda 9 058,1 mlrd.so‘m rejalashtirilgan. Yillar davomida fan va oliy ta’lim muassasalariga ajratilayotgan mablag‘larning o‘shish tendensiyasi aniq kuzatilmoqda. Ajratilgan mablag‘lar, ayniqsa, 2019-yildan 2023-yilgacha sezilarli o‘shishgan, shuningdek, 2019-yildan 2020-yilgacha o‘shish sezilarli va 2023-yilga mo‘ljallangan mablag‘lar o‘tgan yillarga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo‘lib, o‘shib borayotgan moliyalashtirish O‘zbekistonda hukumatning ta’lim va tadqiqotga qanchalik ahamiyat berayotganini ko‘rsatadi. Tahlillarga qaraydigan bo‘lsak, alohida e’tiborga molik o‘shishlar, ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga ajratilgan mablag‘lar 2017-yilda 191,8 mlrd.so‘m bo‘lgan bo‘lsa, 2023-yilda 750,0 mlrd.so‘mgacha o‘sgan (+558,2 mlrd.so‘m), kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish muassasalarini saqlash xarajatlari 2017-yilda 96,1 mlrd.so‘m bo‘lsa, 2023-yilda 413,1 mlrd.so‘m bo‘lgan. Bu 317,0 mlrd.so‘mga o‘shish hukumat tomonidan kadrlar malakasi va bilimni oshirishga alohida e’tibor qaratilayotganidan dalolatdir.

Ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy ta’lim muassasalarida doktoranturada o‘qish bilan bog‘liq xarajatlar ham davlat mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilishi keyingi yillarda oshib bormoqda.

3-jadval

Ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy ta’lim muassasalarida doktoranturada o‘qish bilan bog‘liq xarajatlar tahlili¹⁰, ming so‘mda

Nomlanishi	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
Ilmiy-tadqiqot muassasalari					
Doktorantura (DSc)	5 970 843	10 059 228	12 936 464	19 689 461	30 593 651
Tayanch doktorantura (PhD)	24 156 009	47 585 934	61 385 859	93 676 317	144398451
Jami	30 126 853	57 645 163	74 322 324	113365 778	174992102
Oliy o‘quv yurtlari					
Doktorantura (DSc)	7 492 961	10 498 176	13 565 415	20 730 737	36 541 151
Tayanch doktorantura (PhD)	69 107 862	132 800263	179 734956	282 159721	479774050
Jami	76 600 824	143 298439	193 300371	302 890458	516315201
Umumiy jami	106727676	200 943601	267 622694	416 256236	691307303

¹⁰ O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

3-jadvalga e'tibor qaratadigan bo'lsak, unda ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy ta'lim muassasalarida doktoranturada o'qish bilan bog'liq xarajatlar tahlili keltirilgan bo'lib, umumiy davlat byudjetidan moliyalashtirilayotgan xarajatlar jami 2019-yilda 106 727 676 ming so'm, 2020-yilda 200 943 601 ming so'm, 2021-yilda 267 622 694 ming so'm, 2022-yilda 416 256 236 ming so'm va 2023-yil rejasida 691 307 303 ming so'mni tashkil etgan.

Ilmiy-tadqiqot institutlarida ham, umumiy davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan oliy ta'lim muassasalarida ham doktorantura bilan bog'liq xarajatlar sezilarli darajada oshdi. Xarajatlar yillar davomida doimiy ravishda oshib bormoqda, bu ilmiy tadqiqotlar uchun davlat tomonidan moliyalashtirishning ortib borayotganidan dalolat beradi.

Ko'rib turganimizdek, xarajatlar muttassil ravishda oshib bormoqda. Bu esa byudjet taqchilligi va yil yakunida salbiy natijani ko'rsatishi mumkin. Shuni inobatga olgan holda taklifimiz, byudjet mablag'lari bo'yicha xarajatlar smetasida rejalashtirilgan maqsadli mablag'larning ishlatilmay qolgan qismi moliya yili oxirida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga qaytarilishi lozim deb hisoblaymiz. Bunday taklifning ba'zi asosiy afzalliklari:

foydalanilmagan mablag'larni qaytarish fiskal mas'uliyatga sodiqligini ko'rsatadi. Bu davlat mablag'larining bo'sh qolmasligi yoki maqsadsiz foydalanilmasligini ta'minlaydi, bu esa byudjet jarayonining yanada samarali va hisobdorligiga hissa qo'shadi;

ishlatilmagan mablag'larni qaytarish orqali biz byudjet taqchilligining oldini olishga va muvozanatli byudjetni saqlashga yordam berishimiz mumkin. Ushbu amaliyot davlat xizmatlari va infratuzilma loyihalariga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan moliyaviy taqchilliklarning oldini olishda hal qiluvchi rol o'ynashi mumkin;

byudjet tashkilotlarini resurslarni taqsimlashni optimallashtirishga undaydi, yil davomida puxta rejalashtirish va xarajatlarni rag'batlantiradi. Bu mablag'larning o'z maqsadlari uchun yaxshiroq ishlatilishiga olib kelishi mumkin;

foydalanilmagan mablag'larni qaytarish byudjetni boshqarishda shaffoflikni oshiradi. Bu manfaatdor tomonlarga va jamoatchilikka byudjet resurslaridan oqilona foydalanilishi va keraksiz saqlanmaganligini ko'rish imkonini beradi;

mas'uliyatli moliyaviy boshqaruvni namoyish qilish davlat muassasalariga bo'lgan ishonchni oshirishi mumkin va iste'mol qilinmagan mablag'larni belgilangan tartibda qaytarish moliyaviy qoidalarga rioya qilishni ta'minlaydi va qonun ustuvorligini mustahkamlaydi.

Hozirgi sharoitda oliy ta'lim muassasalariga ajratiladigan byudjet mablag'larini aniq hisoblash metodikasini ishlab chiqish eng muhim masalaga aylandi. Shu bilan biz ushbu muassasalarga byudjetdan ajratmalarni hisoblashning alohida metodikani taklif qilamiz, bu quyidagi formula bilan belgilanadi:

$$\mathbf{Baf} = (\Sigma(\mathbf{Bpt}_s * \mathbf{N}_{b-s}) + \Sigma \mathbf{MNX}_s * \mathbf{N}_{M-s}) + \Sigma(\mathbf{KO}_s * \mathbf{N}_{O-s})) + \mathbf{Hp} + \mathbf{OthC} \quad (1)$$

Bunda:

Baf — OTMga joriy moliya yili uchun ajratiladigan jami byudjet mablag‘lari hajmi; **s** — bakalavriat bo‘yicha ta‘lim sohalari va yo‘nalishlari hamda magistratura (klinik ordinatura) mutaxassisliklari nomi;

Bpts — **s** bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha professor-o‘qituvchilar mehnatiga haq to‘lash va rag‘batlantirish bilan bog‘liq xarajatlarini o‘z ichiga oluvchi bir nafar talaba uchun xarajatlarning bazaviy normativi;

KOs — **s** klinik ordinatura mutaxassisligi bo‘yicha professor-o‘qituvchilar mehnatiga haq to‘lash va rag‘batlantirish bilan bog‘liq xarajatlarini o‘z ichiga oluvchi bir nafar talaba uchun xarajatlarning bazaviy normativi;

Hp — OTMning boshqaruv, texnik, xizmat ko‘rsatuvchi va o‘quv-yordamchi xodimlarning mehnatiga haq to‘lash va rag‘batlantirish bilan bog‘liq xarajatlarini o‘z ichiga oluvchi bir nafar talaba uchun xarajatlarning bazaviy normativi;

OthC — boshqa saqlash xarajatlari hamda asosiy aktivlarni xarid qilish va kapital ta‘mirlash uchun ajratiladigan xarajatlarning bazaviy normativi;

NB-s, NM-s va NKo-s — **s** bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi (magistratura mutaxassisligi) bo‘yicha o‘rtacha yillik talabalar soni (**B**-bakalavr, **M**-magistr, **Ko**-klinik ordinator).

Aniq formulaga ega bo‘lish orqali byudjetni taqsimlash jarayoni shaffof va hisobdor bo‘ladi. Ushbu metodologiya byudjet qarorlari qanday qabul qilinishini tushuntirishning tizimli usulini taqdim etadi, bu manfaatdor tomonlarga xarajatlarni oqlashni osonlashtiradi. Shuningdek, formula har bir talaba uchun har xil xarajatlarni hisobga olgan holda samaradorlikni rag‘batlantiradi. Bu resurslarni yanada samaraliroq taqsimlashga olib keladi, bu ortiqcha xarajat yoki isrofgarchilikdan qochishga yordam beradi.

Shu o‘rinda mablag‘larning maqsadli sarflanishi nuqtayi nazaridan, byudjet tashkilotlari tomonidan ortiqcha rejalashtirilgan yoki ishlatilmagan deb belgilangan mablag‘larni chegirib tashlash va ularni ish haqi, nafaqalar va ayrim xizmatlarni moliyalashtirish uchun qayta taqsimlash lozim deb hisoblaymiz. Chunki foydalanilmagan yoki ortiqcha rejalashtirilgan mablag‘larni qayta taqsimlash resurslardan foydalanishni optimallashtirishga yordam beradi. Bu mablag‘larning bo‘sh qolmasligini, balki dolzarb ehtiyojlarga yo‘naltirilishini ta‘minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, foydalanilmagan yoki ortiqcha rejalashtirilgan mablag‘larni muhim ustuvor yo‘nalishlarni moliyalashtirish uchun qayta taqsimlash g‘oyasi, ayniqsa, samaradorlik va fiskal mas‘uliyatni oshirishda muhim ahamiyatga kasb etadi.

Moliyaviy nazorat organlari byudjet tashkilotlari faoliyatida hal qiluvchi rol o‘ynaydi, ular fiskal mas‘uliyat va hisobdorlikning saqlovchisi bo‘lib xizmat qiladi. Moliyaviy nazorat organlari byudjet tashkilotlari tomonidan belgilangan moliyaviy qoidalar, tartiblar va byudjet cheklovlariga rioya etilishini tekshirish uchun javobgardir. Bu orqali ular byudjet tashkilotlarining fiskal mas‘uliyatni saqlashiga, mablag‘larni ortiqcha va noto‘g‘ri taqsimlanishiga yo‘l qo‘ymaslikka yordam beradi.

4-jadval

Davlat byudjet tashkilotlarida 2018-2022-yillarda aniqlangan moliyaviy xatolik va kamchiliklar o‘shish dinamikasi¹¹, mln.so‘m

Kursatkichlar	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil
Moliyaviy xatoliklar	68104,1	142591,9	245956,4	1072120	974882
shundan:					
pul mablag‘lari va moddiy boyliklarni kamomadi va o‘zlashtirishlar	15608,9	30348,6	81354,2	124562	166391
noqonuniy xarajat va ortiqcha to‘lovlar	52495,2	112243,3	164602,2	947558	808491

Ma’lumotlardan aniqlangan moliyaviy xatolik va kamchiliklar 2018-yilda 68104,1 mln.so‘mni, 2019-yilda 142591,9 mln.so‘mni, 2020-yilda 245956,4 mln.so‘mni, 2021-yilda 1072120 mln.so‘mni va 2022-yilda 974882 mln.so‘mni tashkil etganligini ko‘rishimiz mumkin. Shundan pul mablag‘lari va moddiy boyliklarni kamomadi va o‘zlashtirishlar bilan bog‘liq moliyaviy xatoliklar 2018-yilda 15608,9 mln.so‘mni, 2019-yilda 30348,6 mln.so‘mni, 2020-yilda 81354,2 mln.so‘mni, 2021-yilda 124562 mln.so‘mni va 2022-yilda 166391 mln.so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, noqonuniy xarajat va ortiqcha to‘lovlar bilan bog‘liq moliyaviy xatolik va kamchiliklar 2018-yilda 52495,2 mln.so‘mni, 2019-yilda 112243,3 mln.so‘mni, 2020-yilda 164602,2 mln.so‘mni, 2021-yilda 947558 mln.so‘mni va 2022-yilda 808491 mln.so‘mni tashkil etganligini guvohi bo‘lmoqdamiz.

5-jadval

2018-2022-yillarda byudjet tashkilotlarida o‘tkazilgan moliyaviy nazorat samaradorlik natijalari dinamikasi¹², mln.so‘m

Ko‘rsatkichlar	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil
Qo‘shimcha hisoblanib tiklangan va iqtisod qilingan mablag‘lar	33703,0	12731,0	31125,3	154160	150500
Tiklangan mablag‘lar	51090,1	129138,8	168771,1	298870	460254
Huquqni muhofaza qiluvchi organlarga berilgan nazorat tadbirlari materiallari	60127,1	129621,7	239534,9	329019	525600

